



O'ZBEKISTONNING 2030-YILGACHA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH STRATEGIYASI

Dobilova Zahro Davron qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi dobilovazahro8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida kambag'allikni qisqartirish siyosatining asosiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tahlil iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va manzilli ijtimoiy himoyaga asoslangan "Yangi O'zbekiston modeli"ni yaratishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar. Kambag'allik, bandlik, inson kapitali, "Inson" markazlari, iqtisodiy o'sish, YaIM.

KIRISH

Bugungi kunda kambag'allikni qisqartirish har bir mamlakatni oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston ham mustaqillik yillaridan buyon iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash yo'lida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

Shu maqsadda 2023-yilda qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mamlakatda kambag'allikni ikki barobarga kamaytirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish va o'rta sinfni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Asosiy qism. O'zbekiston 2030-strategiyasida kambag'allikka qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirilib, ijtimoiy yordamdan ko'ra iqtisodiy o'sish orqali aholini mustaqil daromad manbalariga ega qilish tamoyiliga asoslangan. 2023-yilning so'nggiga qadar kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xitoylik mutaxassislar va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda 2024-2030-yillarga mo'ljallangan kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategiyani ishlab chiqishdi va oldilariga quyidagi maqsadlarni qo'yishdi:

1. 2026-yilga qadar kambag'allikni 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartiriladi.
2. Kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshiriladi.
3. Mehnat qobiliyatini ishga solish orqali 3 million nafar yoshlarni kambag'allikdan chiqariladi.
4. Ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash va bunga har yili kamida 1 milliard dollar yo'naltiriladi.
5. Har bir viloyatda kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan bittadan jami 14 ta tumanni kambag'allikdan chiqarish va kompleks rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqilib, tasdiqlanadi.
6. Tanlab olingan 14 ta tumanni Xitoy tajribasi asosida, shu jumladan yangi yondashuvlar, innovatsion va "yashil" texnologiyalar hamda boshqaruvning zamonaviy usullarini qo'llagan holda kambag'allikdan chiqarish usullari amaliyotga joriy etiladi.



7. Yangi moliyaviy instrumentlar joriy etish orqali kambag'al aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilib, imtiyozli kredit va subsidiyalar berish tizimi takomillashtiriladi.

8. Ehtiyojmand aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qulay shartlarda qo'llab-quvvatlash maqsadida raqamli "Mikromoliya" tashkiloti tashkil etiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, milliy kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17% dan 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra 6,8% gacha pasaydi. Hukumatning maqsadi 2025-yil yakunida ko'rsatkichni 6% gacha tushirishdan iborat.

O'zbekistonda kambag'allik darajasining yillar bo'yicha o'zgarishi:

Yil	2000	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (iyul)
Darajasi %	24%	11,5%	17%	14.1%	11%	8,9%	6,8%

1-jadval

Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi asosiy yo'nalishlari:

1. Bandlikni ta'minlash va daromadlarni oshirish: YaIMni 2030-yilgacha 2 barobar oshirish evaziga ish o'rinlarini ko'paytirish. Kambag'allik qisqarishini 90% dan ortig'i aynan tadbirkorlik va ish haqi daromadlarining o'sishi hisobiga ta'minlanmoqda.

2. Sifatli ijtimoiy xizmatlar va inson kapitalini rivojlantirish: "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali 110 turdagi yordamni manzilli yetkazish va malakani oshirishga sarmoya kiritish. Strategiya doirasida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlashga alohida e'tibor berilgan.

3. Hududiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Kambag'allik yuqori bo'lgan 32 ta tuman va 328 ta mahallada infratuzilmani yaxshilash, shuningdek, mikromoliya va subsidiya berish orqali xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish.

Yuqoridagi yo'nalishlar kambag'allikni qisqartirishda kompleks yondashuvning ahamiyatini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish bandlikni oshiradi, bandlik esa daromadlarni ko'paytiradi. Shu bilan birga, inson kapitaliga sarmoya kiritish aholining mehnat unumdorligini oshiradi va ijtimoiy himoya tizimi orqali eng zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu o'zaro bog'liq mexanizmlar strategiyaning muvaffaqiyat omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa. O'zbekistonning 2030-yilgacha kambag'allikni qisqartirish strategiyasi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan ta'minlangan bo'lib, ushbu chora tadbirlar natijasida 2026-yilgacha bo'lgan maqsadlarga muddatidan avval erishish imkoniyatini yaratmoqda. Strategiyaning asosiy maqsadi aholiga shunchaki yordam berish emas, balki ularni barqaror daromad manbalari orqali kambag'allikdan butunlay olib chiqishini ta'minlashdir. Biroq, hali oldinda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ko'plab ishlar bor. Biz quyidagi yo'nalishlarda chora tadbirlarni kuchaytirishimiz kerak:

- Kambag'allikni qisqartirish uchun hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va kasb-hunar o'rgatish markazlarini kengaytirish zarur.

- Ijtimoiy yordamni raqamlashtirish orqali manzilli ko'makni tez va samarali yetkazish lozim.

- Xalqaro tajriba asosida mahalliy sharoitga mos model ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi - "O'zbekiston - 2030" strategiyasi (2023).
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari (2024).
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Tadqiqotlar markazi. Ijtimoiy siyosat va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tahliliy materiallar. - Toshkent, 2024.
4. Davlat statistika agentligi hisobotlari (2025).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI).
6. Ziyodullaev, N., & Ziyodullaeva, M. (2023). FINANCIAL LITERACY, INTERRELATIONSHIP OF POPULATION INCOME AND EXPENDITURE. Science and innovation, 2(B12), 881-887.
7. Urazbekovna, T. K. (2024). ROLE OF PUBLIC POLICY IN CHANGES IN POPULATION INCOME. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(22), 316-321.